TALABALARNI ILMIY-TEXNIKAVIY IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Hamraqulov Yo.M., Fayzullayeva Muxlisa
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya.

Maqolada talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatini tarbiyalash masalasini o'ziga xos psixologik va tashkiliy – pedagogik asoslari muhim jihatlari keltirilgan. Bunda talabalarni texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy rahbarkuchli psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi, chidam va matonat, mahorat, strategik va taktik tajriba va boshqarish san'atini ishlata olishi bilan bunday natijaga ega bo'lishi maqolada keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, pedagogik, psixologiya, fikrlash, yetakchilik, munosabat ehtiyoji,ilmiy rahbar, psixologik xususiyat, ilmiy-texnikaviy ijodkorlik.

Аннотация.

В статье представлены существенные аспекты специфической психолого-организационно – педагогической основы вопроса воспитания научно-технической творческой деятельности учащихся. Такой научный руководитель в развитии способностей учащихся к техническому творчеству, обладающий сильными психологическими

характеристиками, обладающий выносливостью и упорством, умением использовать умения, стратегический и тактический опыт и искусство управления, как указано в статье.

Ключевые слова: творчество, педагогика, психология, мышление, лидерство, потребность во взаимоотношениях, научный руководитель, психологическая характеристика, научно-техническое творчество.

Annotation.

The article presents important aspects of the specific psychological and organizational and pedagogical foundations of the issue of educating the activities of scientific and technical creativity of students. In this article, it is stated that the students should have psychological characteristics of scientific leadership in the development of technical creativity, they should be able to use endurance and tenacity, skill, strategic and tactical experience, and the art of management.

Keywords: creativity, pedagogy, psychology, thinking, leadership, attitude need, scientific leader, psychological feature, scientific and technical creativity.

Yetakchilik (liderstvo) ehtiyoji –bu shaxsning boshqalardan oldinda bo'lish, g'alabaga erishish, o'zining qarashlari bilan boshqalarni lol qoldirishga intilish kabi fazilatlari bo'lib, bu ham ijodkorlik jarayonida muhim harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Tajribalarning ko'rsatishicha, yetakchilikka intilish ehtiyoji uyg'unlashganda talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati eng yuqori kutilgan natijalarni beradi.


Bilish ehtiyoji – bu eng ko'p tarqalgan va hayotiy tabiiy ehtiyoj hisoblanadi. Chunki har bir inson hamisha o'zini o'rab turgan dunyo (muhit) to'g'risida bilishga intilib yashaydi . Bu ehtiyoj talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ishga vijdonan munosabatda bo'lish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Buni uning barcha shakldagi ijodkorli jarayonini faollashtirishdagi roli orqali izoxlash mumkun. Tadqiqotlarga ko'ra, ijodkorlikda bilishga ehtiyoji yuqori bo'lgan shaxsning o'zlashtirishi, ehtiyoji past shaxsnikiga qaraganda ikki marta yuqori bo'ladi. Agar bu ehtiyojni shaxsning muvaffaqiyatga erishi ehtiyoji bilan uyg'unlashtirishga erishilsa, u holda o'zlashtirish yanada yuqori bo'lishiga olib keladi.

Munosabat ehtiyoji – talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida munosabat psixologlar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Chunki talaba ijodkorlik masalasi yechimini topishda nafaqat kitoblar bilan muloqatda bo'ladi va hatto shu sohaning yetakchi mutaxassisidan, rahbari va o'rtoqlari bilan ham fikrlashadi. Bu jihatni psixologiyada <<affiliatsiya>> ehtiyoji deb nomlanadi. Bu ehtiyoj nerv-hissiy yuklanishi, asabiylashish, baxslashishga olib kelishi va ba'zi hollarda ijodkorlik masalasi yechimining noto'g'ri bo'lishiga olib kelishini nazarda tutadi. Umummy holda bu ehtiyoj ijodkorlikga ijobiy ta'sir qilib, xususiy (alohida)lik kasb etadi. Chunki hamma xollarda ham masalaning yechimida ko'plab kishilarning ishtirok etishi (ko'maklashishi, munosabat bildirishi) shart emas.

Shaxsning ehtiyoji, jumladan yuqoridagi ijodkorlik faoliyatida kishi tomonidan hamisha ham to'liq anglab olinavermaydi. Ehtiyojni aniqlash sababning xususiyatlarida yaqqol ko'rinadi. Insonlar har qanday faoliyatida bo'lgani singari talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ham shaxs intilishi ta'sir doirasi o'ziga xos hatti – harakatlarga undaydigan sabablardan iborat ehtiyojga asoslanadi va u ma'lum maqsad (ob'ekt) sari intilishni ifodalaydi. Bu intilish esa o'z navbatida:

1. Masalani qo'yish;
2. Aqliy yoki jismoniy ta'sir;
3. Bajarish bosqichlari;
4. Maqsadga erishishlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri esa o'ziga xos motim pisixologik, tashkiliy – pedagogik va uslubiy ehtiyojlar asosida amalga oshib nihoyasiga yetadi (1-rasm).

Bu yerda ijodkorlik masalasining qo'yilishga asosiy e'tibor qaratiladi, chunki u maqsadga intilishning ta'sirlari ko'lamini rejalashtirish va boshqalarni aniqlash imkonini beradi. Ijodkorlik masalasining qo'yilishi esa o'z navbatida intilishning ehtiyojni ifodalovchi motivlarni talab qiladi (ya'ni nima uchun zarur degan savolga javob izlashni taqazo qiladi). Shuningdek, nima qilish kerakligini tushunib etishini, nimalarni bajarish zarurligini aniqlashtiradi



1-rasm.Talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ehtiyojni qondirishga intilish asoslari.

Ilmiy-texnikaviyijodkorlikda tushunish – maqsadga erishishning taxminiy asosini tashkil qiladi va u ijodkor shaxsning boshlang'ich bilimlari saviyasi, ilmiy rahbarning maslahati va ob'ektning ishlashini taxminiy ifodalovchi ko'rgazmali qurollar yordamida shakllantiradi.

Xullas talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ijodkorlikga ehtiyojini tarbiyalash masalasi o'ziga xos psixologik va tashkiliy – pedagogik asoslarga ega. U ilmiy rahbarning har bir qatnashuvi shaxsining psixologik xususiyatlarini bilishini, chidam va matonat, mahorat, strategik va taktik tajriba va boshqarish san'atini talab qiladi.

Agar rahbar o'z sohasi bo'yicha etarli bilimga ega bo'lmasa, ishlarni tashkillashtirish metodikasini takomillashtirib bormasa, talabalar o'rtasida o'rnak bo'ladigan obro'si bo'lmasa va nihoyat egallab turgan o'rniga munosib bo'lmasa, bunday pedagogik nafaqat talabalarda ehtiyojini tarbiyalay oladi, aksincha ularning ilmiy – texnikaviy ijodkorlikga bo'lgan ehtiyojini so'ndiradi. Talabalarni ijodkorlikka ehtiyojini tarbiyalashda ijodkorlik ishlari bo'yicha ko'rik tanlov va konferentsiyalar o'tkazishning ahamiyati katta. Unda talabalar o'zlarining ijodkorlik g'oyalari to'g'riligiga ishonch xosil qiladilar va tuyg'ularini his qiladilar.

Ayniqsa ularning muvaffaqiyatlarini jamoa o'rtasida rag'batlantirish ijodkorlikka ehtiyojining yanada oshishiga olib keladi va ijodkorlikka intilishni shakllantirishning muhim psixologik omili bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Mahsulot qiymatini yaratishda qiymat zanjiri usulini rivojlantirish” Международный научный журнал № 8(100), часть 2 «Научный импульс» Март, 2023 https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/6480/4336/4204

2. “Development of digital platform technologies in multimodal transport” Journal of Pharmaceutical Negative Results Volume 14. Regular Issue 03 ¦ 2023 DOI: 10.47750/pnr.2023.14.03.449 https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/9715

3. Abduraxmanov R.A., Azizov S.Z. Shahar yo’lovchi transportlarining imtiyozli harakatlanishini tadqiq qilish (Jizzax shahri misolida) // TAYI “O’zbekiston avtomobil-yo’l kompleksining dolzarb vazifalari” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami II-qism. Jizzax-2008, 165-166 bet.

4. Бабков В.Ф. Дорожные условия и безопасност движения. М.: Транспорт. 1982. - 286 с.

5. Umirov, I., Turushev, S., & Ravshanov, F. (2021). Йўл бўлакларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсирини таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences*, *2*(2).

6. Agzamov, J., Hamraqulov, Y., & Baratov, I. (2021). Jizzax shaxrining magistral kochalarida harakat xavsizligini tahlil qilish. Academic research in educational sciences, 2(6), 363-368.

7. Хамракулов, Ё. (2021). Onlayn o ‘quv kurslarini tashkil etish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirish metodikasi. *Общество и инновации*, *2*(11/S), 31-36.

8. Умиров, И., & Хамракулов, Ё. (2021). Elektron ta’limning o ‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning qiyosiy tahlili. *Общество и инновации*, *2*(10/S), 555-560.